



XX ASR AMERIKA TADQIQOTLARIDA SHAQIY TURKISTON MASALASI

Tosheva Muhayyo Hamid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrasi

Tarix (mintaqa va mamlakatlar bo'yicha) yo'nalishi I kurs magistri

Ilmiy rahbar: PhD, Ikromov Sh.I.

Annotatsiya: Mazkur mavzu XX asr davomida Amerika ilmiy doiralari va siyosiy tahlilchilari tomonidan Sharqiy Turkiston (hozirgi Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni) masalasining o'r ganilishiga bag'ishlangan. Tadqiqotlarda asosan Sharqiy Turkistonning geosiyosiy ahamiyati, etnik tarkibi, milliy ozodlik harakatlari, mintaqadagi Xitoy va Sovet Ittifoqi ta'siri hamda AQSh tashqi siyosati nuqtayi nazaridan bu hududga bo'lgan munosabat tahlil qilinadi. Amerika tadqiqotchilari Sharqiy Turkiston masalasini Sovuq urush kontekstida strategik nuqtai nazardan ko'rib chiqib, hududdagi milliy harakatlar va ularning xalqaro rezonansini o'r ganishga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mintaqaviy siyosat, xalqaro aloqalar va inson huquqlari masalalarini o'r ganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Sharqiy Turkiston, Amerika tadqiqotlari, geosiyosat, milliy ozodlik harakati, Sovuq urush, Xitoy siyosati, AQSh tashqi siyosati, xalqaro munosabatlar, etnik masala, inson huquqlari.

Ochiq eshiklar siyosati AQShning XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tashkil etilgan diplomatik siyosati bo'lib, Qing Xitoyi bilan teng savdo va investitsiyalar tizimiga va Qing Xitoyning hududiy yaxlitligini kafolatlashga qaratilgan edi. Siyosat



AQSh Davlat kotibi Jon Xey tomonidan 1899-yil 6-sentabrdagi “Ochiq eshik eslatmasi” nomi ostida yaratilgan va Yevropaning yirik davlatlariga tarqatilgan¹.

Bu siyosat orqali Xitoyning xali dunyo ko‘rmagan hududlarini ochishga ruxsat olindi va dunyo hamjamiyatidan olimlar oqib kela boshladi².

Amerikalik mo‘g‘ulshunos va sinolog Ouen Lattimor va shved Gunnar Jarring 1920-yillarda Xitoy Turkistoniga tashrif buyurgan “klassik” tadqiqotlarchilarining so‘nggi vakillaridan edi. Amerikada tug‘ilgan Ouen Lattimor bolaligini Syantszinda o‘tkazgan, u yerda ota-onasi Devid va Margaret Lattimor ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. 1913-1914 yillarda Lozannadagi Kollej Klassik Kantonal xususiy maktabida tahsil oldi. 1919-yilda u Xitoya qaytib keldi. U rafiqasi bilan birga Ichki Mo‘g‘ulistonga, Gobi cho‘liga, Kashmirga, Hindistonga sayohat qildi va u yerdan Italiyaga ketadi. 1941-yilda Lattimor Prezident Ruzvelt tomonidan Chang Kay-Shiga maslahatchi sifatida yuborildi. AQSh vitse-prezidenti Genri Uolles Xitoy va Mo‘g‘ulistonga safarida hamrohlik qildi.

1963-yilda u Jon Hopkins universitetidan Lids universitetiga Xitoy tadqiqotlari (hozirgi Sharqiy Osiyo tadqiqotlari) kafedrasini tashkil etish yuboriladi. Xitoysunoslikni yo‘lga qo‘yishdan tashqari, u mo‘g‘ulshunoslikni targ‘ib qildi, Lids va Mo‘g‘uliston o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatdi va 1968-yilda mo‘g‘ulshunoslik dasturini yo‘lga qo‘ydi. Lattimor butun umri davomida Mo‘g‘uliston tarixi va madaniyatini o‘rganish uchun tadqiqot markazlarini tashkil etishga bag‘ishlangan. 1979-yilda u Mo‘g‘uliston davlati xorijliklarga beradigan eng oliy mukofot - “Qutb yulduzi” ordeni bilan taqdirlangan birinchi g‘arblik bo‘ldi. Ulan-Batordagi Davlat muzeyi 1986-yilda yangi topilgan dinozavrga uning nomini berdi.³

Tarixchi Piter Perdyu Lattimor haqida shunday deb yozgan edi: “Zamonaviy tarixchilar, antropologlar va arxeologlar Lattimorning ko‘plab dalillarini qayta

¹ Commercial Rights in China ('Open Door' Policy): Declarations by France, Germany, the United Kingdom, Italy, Japan, and Russia accepting United States proposal for 'open door' policy in China, September 6, 1899–March 20, 1900

² Secretary of State John Hay and the Open Door in China, 1899–1900. – Milestones: 1899–1913. Office of the Historian, U.S. Department of State.

³ Robert P.N. Owen Lattimore and the “Loss” of China. – California: University of California Press, 1992. – 584. p.



ko‘rib chiqdilar, lekin ular hali ham uning tushunchalariga tayanadilar. Lattimor tomonidan aytilgan barcha mavzular bugungi kunda ham jahon tarixchilariga ilhom berishda davom etmoqda.⁴

1927-yilda ichki Mo‘g‘ulistonga Ouen Lattimor uni afsonaviy sarguzashchi va Osiyo olimlari orasida yetakchi sifatida ko‘rsatadigan sayohatga chiqdi. Lattimorning mashhur “Qiyshiq yo‘l” bo‘ylab o‘tkazgan mashaqqatli ekspeditsiyasi haqidagi kitobi “The Desert Road to Turkestan” (Turkistonga sahro yo‘li)⁵ 1928-yilda nashr qilingan. Owen Lattimorning “Pivot of Asia: Sinkiang and the Inner Asia Frontiers of China and Russia” kitobi 1950-yilda Bostonda nashr etilgan. Lattimorning nashrlaridan quyidagi yettitasini eng muhimi sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin: “Turkistonga cho‘l yo‘li” (The Desert Road to Turkestan) (1928), “, “The Inner Asian Frontiers of China”(Xitoyning ichki Osiyo chegaralari) (1940), “High Tartary” (Yuqori tatarlar) (1930) “Mo‘g‘ul sayohatlari” (1941), “Osiyodagi vaziyat” (1949), Osiyoning yo‘nalishi: Sinkiang va Xitoy va Rossiyaning ichki Osiyo chegaralari (1950) va Chegara tarixi bo‘yicha tadqiqotlar: to‘plangan hujjatlar, 1928-1958 (1962)⁶.

Rafael Pumpelli amerikalik geolog va tadqiqotchi. U XIX asr oxirlarida, xususan, 1903-1904-yillarda Sharqiy Turkistonga ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan. Ekspeditsiya Karnegi fan instituti tomonidan homiylik qilingan va mintaqaning geologik va arxeologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Pumpelli va uning jamoasi Sharqiy Turkistonda geografiya, geologiya va qadimiy sivilizatsiyalar bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, asosiy e’tiborni Tarim havzasasi va uning atrofidagi tog‘ hududlarga qaratdi. Ularning ishi mintaqaning geologik tarixi va madaniy merosini o‘rganishga katta hissa qo‘shti⁷. Rafael Pumpelli boshchiligidagi bu ekspeditsiya Tarim havzasining janubiy qismida joylashgan

⁴ Perdue, Peter (2018). Owen Lattimore: World Historian. Oxford Handbooks Online.

⁵ Owen Lattimor The Desert Road to Turkestan. – London: Methuen, 1928. – P. 34.

⁶ Латтимор О. // Большая советская энциклопедия: в 30 т. / под ред. А.М. Прохоров. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 65.

⁷ Wilson J.G., Fiske, J., eds. (1900). Pumpelly, Mary Hollenback Welles. Appletons' Cyclopaedia of American Biography. – New York, – P. 67.



qadimiy Niya shahrini topdi. Niya Xan sulolasiga davrida (miloddan avvalgi 206 - 220) gullab-yashnagan muhim Ipak yo‘li shaharlaridan biri edi.

Pumpelli jamoasi yaxshi saqlangan artefaktlarni, jumladan, kulolchilik, qo‘lyozmalar va yog‘och buyumlarni topib, Niya aholisining kundalik hayoti va madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etdi. Ekspeditsiya Sharqiy Turkistonning turli joylarida, xususan, Kucha hududidagi buddist g‘or rasmlarini ham o‘rgangan. Bundan tashqari, Pumpelli jamoasi Tarim havzasidagi qadimiy sug‘orish tizimlarini o‘rganib chiqqan. Olim Sharqiy Turkistonga sayohati davomida o‘rgangan bilimlarini “Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan. Expedition...” nomli kitobida bayon etdi va 1095-yilda ushbu kitob Washingtonda nashr etildi⁸.

Ellsvort Xantington XX asr boshlarida Yel universitetining geografiya professori bo‘lgan, atrof-muhit determinizmi, iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy geografiya bo‘yicha tadqiqotlari bilan tanilgan. U Turkiyaning Furot kollejida dars bergen va Pumpelli (1903) va Barrett (1905–1906) larning Markaziy Osiyoga ekspeditsiyalariga hamrohlik qilgan. “Explorations in Turkestan”⁹ (Turkistondagi kashfiyotlar) (1905) va “The Pulse of Asia” (Osiyo zarbasi)¹⁰ (1907) asarlarida o‘zining Osiyoga sayohati davomida olgan tajribalarini yozgan.

Chet ellik tadqiqotchilar XXRdagi siyosiy hayotning liberallashuvi tufayli faqat 1980-yillarda viloyatga tashrif buyurishga muvaffaq bo‘lishdi. Uzoq vaqt davomida Shinjon butun dunyo uchun no‘malum bo‘lib qoldi.

1990-yillardan boshlab antropologiyaga Dru Gladniy, Jastin Rudelson, Shon Roberts, Joan F. Smit, Timoti Groz (shaxsiyat), Ildiko Beller-Xann (tarixiy antropologiya), Rahile Dovut, Uilyam Klark, Rune Steenberg, Aysima Mirsultan muhim hissa qo‘shgan. Natan Light, Stenli Tups, Jey Dautcher, Darren Bayler

⁸ Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan. Expedition ... Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan. Expedition of 1903] Carnegie Institution Publication No. 26 (Washington, D.C.: Carnegie Institution, 1905); Explorations in Turkestan : Prehistoric Civilizations of Anau. Expedition of 1904, Carnegie Institution Publication No. 73, 2 vols. (Washington, D.C.: Carnegie Institution, 1908)

⁹ Xantington E. Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan, Expedition of 1903, under the Direction of Raphael Pumpelly. 1905. – P. 90.

¹⁰ Xantington E. “The Pulse of Asia: A Journey in Central Asia Illustrating the Geographic Basis of History”. 1907. – P. 32.



(madaniy antropologiya), Gardner Bovingdon (siyosiy antropologiya), Arien Dvayer (lingvistik antropologiya), Reychel Xarris, Elise Anderson va Mukaddas Mijit (etnomuzikologiya) kabi olimlar o‘z izlanishlarini olib borganlar.

Dru Kertis Gladney (1956-yil 3-noyabr - 2022-yil 17-mart) amerikalik antropolog, Pomona kolleji Tinch okeani havzasi instituti prezidenti va u yerda antropologiya professori bo‘lgan. Gladni Osiyo qit’asini qamrab olgan mavzularda to‘rtta kitob va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar va kitob bo‘limlari muallifi. Gladney o‘z tadqiqotlarini Osiyodagi etnik va madaniy millatchilikka qaratib, Ipak yo‘li va musulmon xitoyi (yoki Xui) xalqlari, siyosati va madaniyatiga ixtisoslashtirgan. Xitoy va Turkiyada ikki karra Fullbrayt tadqiqotchisi bo‘lib, G‘arbiy Xitoy, Markaziy Osiyo va Turkiyada uzoq muddatli dala tadqiqotlari olib bordi. Gladnining 2004-yilda Chikago universiteti nashriyoti tomonidan “Xitoyni dislokatsiya qilish: musulmonlar, ozchiliklar va boshqa sub’ektlar” kitobi nashr etilgan. Uning 1991-yilda Garvard Sharqiy Osiyo monografiyalaridagi nashr etilgan kitobi “Musulmon xitoylari: Xalq Respublikasidagi etnik millatchilik” deb nomlangan. U (1998) “Xitoyda etnik o‘ziga xoslik: Musulmon ozchilik millatining shakllanish” kitobining muallifi va Yaponiya, Xitoy, Koreya, Malayziya, Fiji, Turkiya va AQShda “Making Majorities: Constituting the Nation” jurnalining muharriri bo‘lgan. Uning 1990-yilda “Central Asia survey” jurnalining 9-sonida nashr etilgan “The ethnogenesis of the Uighur” maqolasida uyg‘urlar etnogeneziga juda yaxshi to‘xtalgan.¹¹

Doktor Jastin Jon Rudelson Garvard universitetida o‘qigan, Xitoy va Markaziy Osiyo bo‘yicha PhD antropolog bo‘lib, Shinjon mintaqasidagi aksariyat uyg‘ur turkiy musulmonlari orasida Xitoyning Ipak yo‘li bo‘ylab statsionar tadqiqotlarni birinchi bo‘lib olib borgan. Doktor Rudelson “Oasis Identities: Uyghur Nationalism Along China’s Silk Road” (1997) va boshqa akademik nashrlar muallifi.¹²

Ildiko Beller-Xann Eötvös Lóránd universitetida (Budapesht, Vengriya) turkshunoslik, ingliz tili va arxeologiya bo‘yicha magistrlik darajasini olgan.

¹¹ Gladney Dru .C. “The Ethnogenesis of the Uighur,” Central Asian Survey 9, no. 1. 1990. – P. 28.

¹² Rudelson J. Oases Identities: Uyghur Nationalism along China’s Silk Road. – New York: Columbia University Press, 1977. – P. 26.



U 1989-yilda Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti Sharqshunoslik fakultetida turkiy tarixiy tilshunoslik bo'yicha tahsil olib, fan nomzodi ilmiy darajasini olgan, so'ogra Kent universitetida (Kenterberi) tadqiqotchi bo'lib, u yerda Turkiya va Shinjon (Shimoliy-G'arbiy Xitoy) bo'yicha yirik tadqiqot loyihamalarida ishlagan. 2005-yilda Berlindagi Humboldt universitetida 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida "Shinjondagi uyg'urlarning tarixiy antropologiyasi" bo'yicha dissertatsiya yoqlagan. Uning ilmiy yo'nalishlari Markaziy Osiyo, Shinjon va Turkiyaning tarixiy va zamonaviy antropologiyasini o'z ichiga oladi. Uning asosiy ishlaridan biri "*Community Matters in Xinjiang 1880-1949: Towards a historical anthropology of the Uyghur*" (Shinjonda 1880-1949 yillardagi jamiyat masalalari: Uyg'urlarning tarixiy antropologiyasi masalalari) xitoy tadqiqotlariga asoslangan va 2008-yilda Bostonda nashr etilgan.¹³

Arien Dwyer 2001-yildan beri Kanzas universitetining antropologiya kafedrasida lingvistik antropologiya professori. U, shuningdek, Vashington universitetining tilshunoslik professori. 2010-yilda u KU gumanitar fanlar bo'yicha raqamli tadqiqotlar institutiga asos solgan. va 2018-yilgacha unga rahbarlik qilgan. Dvayer Ichki va O'rta Osiyo tillari va madaniyatları, ayniqsa turkiy, sinit va mo'g'ul oilalaridagi tillar bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. U 1996-yilda Vashington universitetida Oltoy va xitoy tilshunosligi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini qo'lga kiritgan va Iogannes Gutenberg-Maynts universitetida Humboldt ilmiy xodimi va Volkswagen-DOBES granti sohibi bo'lган. U uyg'ur tili uchun pedagogik va lingvistik materiallarni ham nashr etган¹⁴. Uning tadqiqotlari Xitoyning Ichki Osiyosining Sprachbund, tillar yaqinlashuvni mintaqasi sifatidagi mintaqaviy ahamiyatini muhokama qilishda e'tiborga loyiqidir. Uning tadqiqotlari, shuningdek, til hujjalari, Open Access va til mafkurasi masalalariga qaraydi. 2014-yilda uning ishi unga Jon Saymon Guggenxaym memorial jamg'armasi a'zosi bo'lishiga olib keldi. Uning tadqiqotlari Xitoyning ichki Osiyosi tillar uyg'unligi mintaqasi

¹³ *Community Matters in Xinjiang 1880-1949: Towards a historical anthropology of the Uyghur*. Leiden, Boston. – Brill, 2008. – 476 p.

¹⁴ Teklimakandin Salam / Greetings from the Teklimakan: A handbook of Modern Uyghur. 10 December 2009. ISBN 9781936153039. Retrieved 2022-04-12.



sifatidagi mintaqaviy ahamiyatini muhokama qilishda e'tiborga loyiqdir¹⁵. Uning tadqiqotlari til aloqasi va til mafkurasiga qaratilgan. U Ichki va Markaziy Osiyodagi shaxslar va jamoalar bilan 20 yil davomida mahalliy tadqiqot olib borgan (turkmo'g'ul-sinit-tibet tillari aloqasi bo'yicha). Arien Dwyer "The Xinjiang Conflict: Uyghur Identity, Language Policy, and Political Discourse" asari Washingtonda 2005-yilda nashr etilgan. Ushbu kitobda muallif asosan uyg'ur tiliga e'tiborini qaratadi va zamonaviy Xitoy Xalq Respublikasi davrida uyg'ur tilining istiqbollari yo'qolib borayotganligidan xavotir oladi¹⁶.

Piter C. Perdu amerikalik yozuvchi, professor va tarixchi. U Yel universitetida Xitoy tarixi fani professori. Perdue Garvard universitetining tarix va Sharqiy Osiyo tillari bo'yicha PhD darajasiga ega. Uning ilmiy qiziqishlari zamonaviy Xitoy va Yaponiyaning ijtimoiy va iqtisodiy tarixi, chegaralar tarixi va jahon tarixiga qaratilgan. U ikkita mashhur kitobning muallifi: "Exhausting the Earth: State and Peasant in Hunan 1500-1850 A.D." (Sharqiy Osiyo tadqiqotlari kengashi, Garvard universiteti, 1987) va 2006-yilda Jozef Levenson¹⁷ mukofotiga sazovor bo'lgan "China Marches West: The Qing Conquest of Central Eurasia" (Garvard universiteti nashriyoti 2005) kitobilarini yozgan. Piter C. Perduning "China Marches West: The Qing Conquest of Central Eurasia" kitobi haqida Levenson qo'mitasi shunday degan edi: "Ushbu ish Qing Xitoyi va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni qanday tushunishimizni tubdan o'zgartirib yubordi. Uning kitobida XVII asrning birinchi o'n yilliklarida manjurlar paydo bo'lishidan XVIII asrning ikkinchi yarmida Torg'utlarning qaytishigacha bo'lgan davrga e'tibor qaratilgan bo'lib, u manjurlar davlatining tugatilishini "dasht tugadi va buyuk Jahon tarixidagi bo'lim yopildi" deb ta'riflagan edi"¹⁸

¹⁵ Sprachbund, shuningdek, lingvistik hudud, lingvistik yaqinlik maydoni yoki diffuziya maydoni sifatida ham tanilgan, geografik yaqinlik va til aloqasi natijasida yuzaga keladigan hududiy xususiyatlarni birlashtiradigan tillar guruhidir. Tillar genetik jihatdan bog'liq bo'limgan yoki faqat uzoqdan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo sprachbund xususiyatlari qarindoshlikning noto'g'ri ko'rinishini berishi mumkin.

¹⁶ Dwyer A. The Xinjiang Conflict: Uyghur Identity, Language Policy, and Political Discourse. – Washington, 2005. – P. 4.

¹⁷ Jozef Levenson kitob mukofoti har yili Osiyo tadqiqotlari assotsiatsiyasi tomonidan Jozef R. Levenson xotirasiga bag'ishlangan ikkita ingliz tilidagi kitobga beriladi, ulardan biri asosiy e'tibor 1900-yilgacha bo'lgan Xitoya, ikkinchisi esa 1900-yildan keyingi Xitoya oid ishlarga qaratilgan.

¹⁸ Levenson Book Prize Winners Association for Asian Studies (Accessed March 15, 2015).



Ushbu kitobda muallif Xitoyning sharqqa kengashini o‘rganadi va shunday deydi:

“Taxminan 1600-yildan 1800-yilgacha Xitoyning Qing imperiyasi misli ko‘rilmagan darajada kengaydi. Aqlii diplomatiya, iqtisodiy investitsiyalar va Markaziy Osiyo markaziga bir qator ulkan harbiy yurishlar orqali manjur hukmdorlari Jung‘or mo‘g‘ullarini mag‘lub etib, butun zamonaviy Shinjon va Mo‘g‘ulistonni o‘z nazoratiga olib, Tibetda hukmron ta’sirga ega bo‘ldilar. Biz bilgan Xitoy ana shu ulkan urushlarning mahsulidir”.

Piter C. Perdue Xitoyning shimoli-g‘arbiy chegaraga kengayishi haqidagi kam o‘rganilgan tarixni hikoya qiladi. Oldingi Xitoy sulolalaridan farqli o‘laroq, Qing sulolasi Yevroosiyo qit’asining sharqiy yarmida doimiy hukmronlikka erisha oldi. Perdue Xitoyning Markaziy Yevroosiyoda qanday hukmronlikni qo‘lga kiritganligi va bu hukmronlikni qanday oqlashi, Xitoy xalqinining qanday qilib yaxlitligini saqlab turishi va Islom olami, Mo‘g‘uliston bilan munosabatlari qanday rivojlanganligini yoritadi¹⁹.

Jeyms A. Millvard - amerikalik tarixchi, hozirda Jorjtaun universitetining Uolsh nomidagi xorijiy xizmat mакtabida jamiyatlararo tarix professori lavozimida ishlaydi. Millvard Xitoy va Markaziy Osiyo, jumladan, Shinjon mintaqasi tarixini o‘rganadi. Millvardning ixtisosligi orasida Qing imperiyasi, ipak yo‘li, tarixiy va zamonaviy Shinjon musiqasi mavjud. U Shinjondagi uyg‘urlar va boshqa mahalliy Shinjon xalqlari, XXR etnik siyosati va XXR-AQSh munosabatlari bilan bog‘liq dolzarb masalalarni o‘z asarlarida keltirib o‘tadi. Uning nashrlari orasida “Eurasian Crossroads: a history of Xinjiang (2021; 2007)”, “The Silk Road: A Very Short Introduction (2013)”, “New Qing Imperial History: The Making of Inner Asian Empire at Qing Chengde (2004)” va “Beyond the Pass: Economy, Ethnicity and Empire in Qing Central Asia (1998)” kabi Uyg‘urlar masalasiga oid asarlar muallifi²⁰.

¹⁹ China Marches West. The Qing Conquest of Central Eurasia (Harvard University Press, 2005)

²⁰ Millward J.A. Eurasian crossroads: a history of Xinjiang (Revised ed.). – New York, 2021. – P. 89.



Amerikalik olima Shareen Blair Brysac - badiiy bo‘lмаган kitoblar muallifi va yozuvchi. 1999-yilda u turmush o‘rtog‘i Karl E. Meyer bilan 1999-yilda nashrdan chiqqan “Turnir of Shadows: the Great Game and the Race for Empire in Central Asia”²¹ kitobining hammuallifi bo‘lgan. U The New York Times tomonidan yilning eng yaxshi kitobi sifatida tanlandi va “muhim global muammolar bo‘yicha jamoatchilik muhokamasini chuqurlashtirishga qaratilgan ingliz tilidagi dunyodagi eng yaxshi badiiy bo‘lмаган kitob” uchun Lionel Gelber mukofotining finalchisi bo‘ldi. Ushbu kitobda Sharqiy Turkistonga “Katta o‘yin” poygasi paytida tashrif buyurgan ingliz, rus, shved, fransuz, nemis, yapon va boshqa sayohatchi olimlar hayoti va sayohat yo‘li, erishgan yutuqlari haqida batafsил hikoya qilinadi.

Bundan tashqari kitobda ushbu sayyoohlarning Sharqiy turkistonning milliy va madaniy boyliklarini talaganlikda ayblaydi va ularni “yovuz”lar deb ataydi. Bundan tashqari olimaning 2014-yilda nashr etilgan “The China Collectors: America’s Century-Long Hunt for Asian Art Treasures” (Xitoy kolleksiyachilar: Amerikaning Osiyo san’ati xazinalari uchun asrlik ov)²² kitobi Washington Post gazetasining “Yil kitoblaridan biri” deb topildi. Ushbu kitobda ham olima Xitoyga, xususan, sharqit Turkistonga tashrif buyurgan olimlarning ilmiy ishlariga urg‘u berish bilan bir qatorga, ularning o‘zlari bilan mamlakatdan olib chiqib ketgan xazinalari haqida ham keng yoritib o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Perdue Peter (2018). Owen Lattimore: World Historian. Oxford Handbooks Online.
2. Owen Lattimore The Desert Road to Turkestan. – London: Methuen, 1928. – P. 34.
3. Латтимор О. // Большая советская энциклопедия: в 30 т. / под ред. А.М. Прохоров. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 65.

²¹ Meyer K. E. with Brysac.B.Sh. Tournament of Shadows: The Race for Empire in Central Asia. – Washington, 1999. – P. 68.

²² Meyer Karl E. and Brysac.B.Sh. The China Collectors: America's Century Long Hunt for Asian Art Treasures. – New York, 2014. – P. 10.



4. Wilson J.G., Fiske, J., eds. (1900). Pumpelly, Mary Hollenback Welles. Appletons' Cyclopædia of American Biography. – New York, – P. 67.
5. Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan. Expedition ... Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan. Expedition of 1903] Carnegie Institution Publication No. 26 (Washington, D.C.: Carnegie Institution, 1905): Explorations in Turkestan : Prehistoric Civilizations of Anau. Expedition of 1904, Carnegie Institution Publication No. 73, 2 vols. (Washington, D.C.: Carnegie Institution, 1908)
6. Xantington E. Explorations in Turkestan: With an Account of the Basin of Eastern Persia and Sistan, Expedition of 1903, under the Direction of Raphael Pumpelly. 1905. – P. 90.
7. Xantington E. “The Pulse of Asia: A Journey in Central Asia Illustrating the Geographic Basis of History”. 1907. – P. 32.
8. Gladney Dru .C. “The Ethnogenesis of the Uighur,” Central Asian Survey 9, no. 1. 1990. – P. 28.
9. Rudelson J. Oases Identities: Uyghur Nationalism along China’s Silk Road. – New York: Columbia University Press, 1977. – P. 26.
10. *Community Matters in Xinjiang 1880-1949: Towards a historical anthropology of the Uyghur.* Leiden, Boston. – Brill, 2008. – 476 p.